

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMONOVA NIGINA TOLIBOVNA**

**MA'NAVIY BARQARORLIK: MAZMUNI VA MEZONLARI,**  
**MUSTAHKAMLASH IMKONIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Raxmonova Nigina Tolibovna**

Ma’naviy barqarorlik: mazmuni va mezonlari, mustahkamlash imkoniyatlari.....3

**Рахмонова Нигина Толибовна**

Духовная стабильность: содержание и критерии, возможности укрепления .23

**Rakhmonova Nigina Tolibovna**

Spiritual stability: content and criteria, opportunities for strengthening .....45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ.

List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMONOVA NIGINA TOLIBOVNA**

**MA'NAVIY BARQARORLIK: MAZMUNI VA MEZONLARI,**  
**MUSTAHKAMLASH IMKONIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1166 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Negmatova Shaxzoda Shuxratovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Choriyev Sanjarbek Anvarovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Muxtorov Azamat Muxtorovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "30" iyul soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (944 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" iyul dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**B.B. Namozov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**A.Z. Sharipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**N.O. Safarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda axborot oqimlarining tezlashuvi, virtual muhitda qadriyatlar raqobatining kuchayishi, individualizm va iste'molchilik kayfiyatining kengayishi inson ma'naviy dunyosi, ijtimoiy ruhiyati va jamoaviy birdamlik asoslariga jiddiy ta'sir ko'rsatib jamiyat ma'naviy hayoti barqarorligini ta'minlash masalasini dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylantirmoqda. Ma'naviy barqarorlik an'anaviy qadriyatlarni saqlash yoki ma'naviy tarbiyani kuchaytirish masalasi bilan cheklanmay, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mutanosibligi, ijtimoiy ongning sog'lom yo'nalishi, axloqiy me'yorlarning ta'sirchanligi, milliy o'zlikni anglash darajasi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Shu bois jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash tamoyillari, ma'naviy barqarorlikka tahdid soluvchi tendensiyalarning yuzaga kelishi bilan bog'liq omillarni hamda ularga qarshi kurashishda ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish, milliy mafkurani rivojlantirish va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining optimallashtirish imkoniyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida ma'naviy barqarorlik muammosi, madaniy identiklik, axloqiy tarbiya, ma'naviy xavfsizlik, milliy o'zlik va axborot muhitida shaxs tanlovini muhofaza qilish kabi masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq jamiyatning ma'naviy barqarorligi konkret-hududiy xarakterga ega hisoblanib, uni mustahkamlash imkoniyatlarini aniqlayotganda mahalliy shart-sharoitlar, jarayonlar, holatlar, muammolar ham inobatga olinmog'i darkor. Binobarin, milliy ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda uning mazmun-mohiyatini ochib berish, jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari va indikatorlarini tizimlashtirish, shuningdek, uni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqish muammolarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, daxldorlik, ma'rifiy faollik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, yoshlarni turli mafkuraviy va axborot xurujlaridan himoya qilish borasida islohotlar takomillashtirilib borilmoqda. "Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz. Yangi O'zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo'lishi shart! Va albatta shunday bo'ladi. Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan – jaholat ham, ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir. Tinch va farovon hayot qurish uchun esa, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo'lishi zarur"<sup>1</sup>. Shu uchun O'zbekistonda ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish, milliy mafkurani rivojlantirish va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining optimallashtirish hamda milliy taraqqiyotning ma'naviy asoslarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: "O'zbekiston", 2024. –Б.280.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi chorak asrda jamiyat barqarorligiga, xususan ma’naviy barqarorlikka putur yetkazadigan omillar va jarayonlarning ko‘payib ketgani mavzuga doir ilmiy izlanishlarni benihoya faollashtirdi. Xorijiy mamlakatlarda, MDH respublikalarida, O‘zbekistonda muammoga bag‘ishlangan ilmiy ishlar muntazam nashr qilinmoqda. Jumladan, *xorijda* E.Eizenberg, Y.Jabareen, Islam M. Rezaul, H.Marcuse, A.Toﬀler, P.Byukenen tomonidan ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilingan asarlarda jamiyat ma’naviy barqarorligi ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘unlikda tadqiq qilinadi<sup>2</sup>. Ma’naviyat orqali jamiyatni isloh qilish muammolari E.Kassirer, A.Braun kabi olimlar tomonidan, ma’rifatning jamiyat, siyosat, iqtisod va inson rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatidagi ahamiyati B.Garner, A.Margarida,

---

<sup>2</sup> Qarang: Eizenberg E., Jabareen Y. Social Sustainability: A New Conceptual Framework // Sustainability. 2017, № 9. – P. 1-16; Islam M.R., Burmester C.F. Impact of globalization on local traditional handicraft industries in Brazil // Journal of Globalization Studies. 2020, № 2. – P. 108-120; Marcuse H. One-Dimensional Man. – Boston: Beacon, 1964; Toﬀler A. Future Shock. – N-Y.: Random House Publishing Group, 1984; Buchanan P.J. The death of the west. – N-Y.: St. Martin’s Griffin, 2002; Wang Z., He H. National Identity in the Era of Globalization: Crisis and Reconstruction // Social Sciences in China. 2014, № 35. – P. 139-154; Zajda J., Majhanovich S. Cultural Identity in the Global Era. – Dordrecht: Springer, 2021.

B.Johannes, Z.Badri, C.Desire tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan<sup>3</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida uzoq muddat davomida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik muammolari keng o‘rganib kelindi. Biroq jahondagi ma‘naviy-mafkuraviy jarayonlarning chigallashuvi ma‘naviy barqarorlikning turli komponentlari bilan bog‘liq masalalarni mufassalroq tadqiq qilishga undadi. Xususan, Y.Viktorova va Y.Yevdokimova ma‘naviy ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zgarishlarni, A.Galkin ma‘naviy madaniyatdagi transformatsion jarayonlarni, V.Grexnev, Y.Mironova va Yu.Jikriveskaya kishilar ijtimoiy ruhiyatidagi yangi fenomenlarni, M.Morev va V.Kaminskiy ijtimoiy kayfiyatdagi evrilishlarni tahlil qildi<sup>4</sup>.

O‘zbekistonda ham ma‘naviy barqarorlikning ayrim aspektlari bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik muammolar keng tadqiq qilingan. Masalan, Sh.Negmatova o‘zining ilmiy ishlarida – ma‘naviy, axloqiy va huquqiy jihatlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, dissertatsiya ishlanishida metodologik va konseptual hissa qo‘shganlar. Ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash muammolari X.Axmetov, M.Adashova, S.Mirzaliev, R.Norlieva, A.Sharipov, N.Teshaev, A.Erkayev asarlarida – O‘zbekiston ma‘naviy hayotidagi o‘zgarishlar kontekstida, J.Jabborov, B.Turdiyev A.Mavkulov, S.Karimov, M.Normurotova ilmiy ishlarida – jamiyat ma‘naviy ehtiyojlarining yuksalishi kontekstida, A.Muxtorov, S.Otamurodov, A.Azizqulov, A.Alimov, R.Rustamov asarlarida ma‘naviy tahdidlar kontekstida tadqiq qilindi<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Qarang: Cassirer E. The Philosophy of the Enlightenment. – USA: Princeton University Press, 2009. – 392 p.; Brown A.R. Culture and Reform. – New York: Dimensions, 2017. – 34 p.; Garner B. Trade, Culture and the New Politics of Cultural Development at UNESCO. PhD thesis. – UK: University of Manchester, 2010. – 288 p.; Azevedo M. The evaluation of the social impacts of culture: culture, arts and development. Thèse de doctorat. – Paris: Université Paris 1 Panthéon-Sorbonne, 2016. – 327 p.; Bugge J.C. Essays on culture, institutions and long-term development. Thesis. – Paris: Institut d’études politiques, 2015. – 123 p.; Zolfaghari B. An examination of cross-cultural trust development: adopting a “mosaic theory” perspective of culture. Doctoral thesis. – UK: Durham University, 2014. – 298 p.; Campagna D. The Impacts of Participatory Governance on Cultural Development: Evidence from European Capitals of Culture. Doctoral thesis. – Padova: Università degli studi di Padova, 2019. – 274 p.

<sup>4</sup> Qarang: Муталимов В.А. Теоретические основы исследования макроэкономической стабильности // Вестник Социально-педагогического института. 2014, № 4; Руди А.Ш. Источники и признаки социальной стабильности // Мир науки, культуры, образования. 2013, № 1; Савин С.Д. Политическая стабильность в изменяющемся обществе: Автореф. дисс. ... канд. полит. наук. – СПб., 2003; Викторова Е.В. К вопросу о духовном производстве в современном обществе // Регионология. 2014, № 3. – С. 206-210; Галкин А.А. Общественные изменения и проблемы стабильности сквозь призму культуры. Политическое следование // Полис. 1998, № 5. – С. 119-120; Грехнев В.С. Общественная психология как форма духовной жизни людей // Философия и общество. 2006, № 3; Евдокимова Ю.В. Духовное производство: сущность, структура, особенности развития: Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – М., 1995; Миронова Е.Н., Жикрицевская Ю.В. Психологические аспекты духовности общества потребления // Мир науки, культуры, образования. 2015, № 2. – С. 303-305; Морев М.В., Каминский В.С. Социальное настроение: факторы формирования и территориальные особенности // Проблемы развития территории. 2014, № 4.

<sup>5</sup> Axmetov X.A. O‘zbekistonda jamiyat ma‘naviy hayotidagi o‘zgarishlar dinamikasi (ijtimoiy-siyosiy tahlil): Siyos. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T.: DBA, 2018; Mirzaliev S.M., Adashova M.M. Milliy ma‘naviyat rivoji – jamiyat ma‘naviy taraqqiyotining asosidir // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022, № 23. – B. 793-802; Norliev R.I. Milliy taraqqiyot va ma‘naviy yuksalishning o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari: Fals. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: O‘zMU, 2011; Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekistonda ma‘naviy-mafkuraviy islohotlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: Fals. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2021; Erkaev A. Ma‘naviyat – millat nishoni. – T.: Ma‘naviyat, 1999; Teshaev N.N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma‘naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari: Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 76; Jabborov J.A. Ma‘naviy ehtiyojlar yuksalishi – jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida: Fals. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. –

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, ma'naviy barqarorlik muammosining ayrim nazariy, axloqiy, mafkuraviy, madaniy va tarbiyaviy jihatlari turli yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uning jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari va indikatorlari, O'zbekiston jamiyatidagi tarixiy-madaniy asoslari hamda zamonaviy tahdidlar sharoitida uni mustahkamlash mexanizmlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur dissertatsiyaning o'ziga xosligi shundaki, unda ma'naviy barqarorlik jamiyat ma'naviy hayotining holati emas, balki qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, milliy o'zlik, ma'naviy immunitet, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy ruhiyat va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalovchi kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tadqiq etiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq SU-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ma'naviy barqarorlikni jamiyat barqarorligining o'ziga xos shakli sifatida tahlil qilish hamda uning tarkibi, funksiyalari va ahamiyatini aniqlash;

jamiyat ma'naviy barqarorligini shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish hamda ma'naviy barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari va ijtimoiy indikatorlarini tizimlashtirish;

O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlik negizlari va ularni ta'minlash borasida to'plangan ijtimoiy tajribalarni tahlil qilish;

jamiyat ma'naviy barqarorligiga putur yetkazayotgan jarayonlar, zamonaviy tahdidlarni aniqlash, tasniflash va talqin qilish;

ijtimoiy ruhiyat takomili va milliy mafkura rivojining ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini asoslash;

O'zbekistonda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda jamiyat ma'naviy barqarorligini mustahkamlashga doir taklif-tavsiyalar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida jamiyat ma'naviy hayotida barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar va uning asosiy komponentlari belgilangan.

---

Samarqand: SamDU, 2023; Mavkulov A. Ma'naviyat – ehtiyoj mahsuli // Sharq yulduzi. 2010, № 4. – B. 3-7; Normurotova M.K. Jamiyat taraqqiyotidagi ma'naviy ehtiyojlarning falsafiy tahlili: Fals. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2011; Karimov S. Sharq ijtimoiy fikrlar tarixidan. Monografiya. – T.: Ўзбекистон faylasuflari milliy jamiyati, 2016; Turdiyev B.S. Yangi O'zbekiston jamiyati ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasidagi o'zgarishlar dinamikasi: Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 76; Muxtorov A. Globallashtirish sharoitida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari. – T.: Ma'naviyat, 2015; Otamurodov S. Globallashtirish: millatni asrash mas'uliyati. – T.: O'zbekiston, 2018; Rustamov R.R. Geopolitik raqobat sharoitida ma'naviy targ'ibot sistemasidagi atributiv o'zgarishlar: muammolar va yechimlar: Fals. fan. dok. (PhD) diss. – Samarqand: SamDU, 2019; Azizqulov A.A., Alimov A.N. Husayn Voiz Koshifiy axloq falsafasida e'tiqod va aql nisbati. Monografiya. – Samarqand: STEP-SEL, 2025.

**Tadqiqotning predmetini** ma'naviy barqarorlikning mazmuni, mezonlari, ijtimoiy indikatorlari, tarixiy-madaniy negizlari, transformatsion tahdidlari va uni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, tarkibiy-funksional tahlil, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiometrik o'lchov, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jamiyatning ma'naviy barqarorlik darajasi mavjud siyosiy dasturlar xarakteri, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi, axloqiy muhit, diniy bag'rikenglik tamoyilining amaliyotga tatbiq etilganligi, ilm-fan nufuzi hamda ziyoli maqomi, badiiy adabiyot va san'at asarlarining ommalashgani, tarixiy xotiraning shakllanganligi, mafkuraviy plyuralizmning qaror topganligi kabi o'ziga xos pragmatik mezonlar bilan bog'liq ekanligi asoslangan;

jamiyatning ma'naviy barqarorligiga tahdid soluvchi millatchilik, diniy mutaassiblik, axborot xurujlari, mafkuraviy tajovuzlar, tarixiy voqeliklarni noxolis talqin qilish, madaniy degradatsiyaning kuchayishi, inson huquqlarining axloqdan ayri holda talqin etilishi, ilm-fan rivojida nooqilona tendensiyalarning yuzaga kelishi bilan bog'liq omillarning bartaraf etishga qaratilgan innovatsion mexanizmlari ochib berilgan;

jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini baholashda ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik, ochiqlik, shaffoflik va bag'rikenglik kabi indikatorlar shaxslararo ishonch, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy muhitning sog'lomligini ifodalovchi determinant mezonlar ekani asoslangan;

O'zbekiston jamiyati ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda ijtimoiy ruhiyatni ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va daxldorlik hissi asosida takomillashtirish, milliy mafkurani milliy qadriyatlar va zamonaviy islohotlar uyg'unligida rivojlantirish hamda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini ta'lim, tarbiya, ma'rifat va axborot-kommunikatsiya muhiti ta'sirchanligini oshirish orqali optimallashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ma'naviy barqarorlikni jamiyat hayotining qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, milliy o'zlik, axloqiy mas'uliyat, ma'naviy immunitet va ijtimoiy ruhiyat uyg'unligida namoyon bo'ladigan hodisa sifatida baholashga xizmat qiluvchi yondashuv asoslab berilgan;

O'zbekiston ma'naviy barqarorligiga putur yetkazayotgan global jarayonlar ta'sirini yumshatishda ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish va milliy mafkurani rivojlantirish, ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga oid amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan;

ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali ta'lim, tarbiya, madaniyat, san'at, ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya muhiti, oila va mahalla institutlari faoliyatida qadriyat, ideal va axloqiy me'yorlarni qayta ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi

ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'naviy barqarorlik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, tarkibiy elementlari va jamiyat ma'naviy hayotidagi funksional xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslashda, ma'naviy barqarorlik jamiyatda qadriyatlar tizimining izchilligi, ijtimoiy ongning muvozanatli rivoji, milliy o'zlikni anglash, axloqiy mas'uliyat, ma'naviy immunitet va ijtimoiy ruhiyat barqarorligi bilan uzviy bog'liq kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etishda, shuningdek, jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini aniqlashga doir mezonlar va ijtimoiy indikatorlarning tizimlashtirish, ma'naviyat, ijtimoiy barqarorlik, milliy g'oya, ma'naviy xavfsizlik, mafkuraviy immunitet va qadriyatlar transformatsiyasiga oid tadqiqotlarda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlashda, shu maqsadga xizmat qilayotgan subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda, targ'ibot materiallari va metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini baholash, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ta'sirchanligini tahlil qilish, ijtimoiy muhitdagi aksiologik o'zgarishlarni aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni belgilashda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlar bo'yicha ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalar, maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarining didaktik materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlik negizlari va ularni mustahkamlash imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jamiyatning ma'naviy barqarorlik darajasi mavjud siyosiy dasturlar xarakteri, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi, axloqiy muhit, diniy bag'rikenglik tamoyilining amaliyotga tatbiq etilganligi, ilm-fan nufuzi hamda ziyoli maqomi, badiiy adabiyot va san'at asarlarining ommalashgani, tarixiy xotiraning shakllanganligi, mafkuraviy plyuralizmning qaror topganligi kabi o'ziga xos pragmatik mezonlar bilan bog'liq ekanligiga oid umumlashma va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 3-maydagi 04/11-5795-son ma'lumotnomasi). Natijada, Yangi O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashga xizmat qilgan;

jamiyatning ma'naviy barqarorligiga tahdid soluvchi millatchilik, diniy mutaassiblik, axborot xurujlari, mafkuraviy tajovuzlar, tarixiy voqeliklarni noxolis talqin qilish, madaniy degradatsiyaning kuchayishi, inson huquqlarining axloqdan ayri holda talqin etilishi, ilm-fan rivojida nooqilona tendensiyalarning yuzaga kelishi bilan bog'liq omillarning bartaraf etishga qaratilgan innovatsion mexanizmlarga doir taklif va tavsiyalar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2024-yil uchun chora tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 19-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 12-maydagi 10/270-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

jamiyat ma'naviy barqarorlik darajasini baholashda ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik, ochiqlik, shaffoflik va bag'rikenglik kabi indikatorlar shaxslararo ishonch, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy muhitning sog'lomligini ifodalovchi determinant mezonlar ekaniga oid mulohazalar va takliflardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturining II bo'limi "Ma'naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish. 2.1. Milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, Qadriyatlarni asrash va boyitish. 2.2 Madaniy meros muhofazasi, undan foydalanish, tashkiliy huquqiy asoslari" bandlar ijrosini ta'minlashda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbir dasturining ssenariysini yaratish va amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 5-iyundagi 02/06-55-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiyaning saylovoldi dasturida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, yoshlarning ongida ma'naviy barqarorlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uni belgilovchi asosiy mezonlar hamda zamonaviy sharoitda uni mustahkamlash imkoniyatlarini takomillashtirish hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yanada rivojlantirishda xizmat qilgan;

O'zbekiston jamiyati ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda ijtimoiy ruhiyatni ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va daxldorlik hissi asosida takomillashtirish, milliy mafkurani milliy qadriyatlar va zamonaviy islohotlar uyg'unligida rivojlantirish hamda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini ta'lim, tarbiya, ma'rifat va axborot-kommunikatsiya muhiti ta'sirchanligini oshirish orqali optimallashtirishga oid takliflardan "O'zbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Assalom, O'zbekiston", "Hayot va xayol yo'llarida", "Hidoyat sari" teledasturlarini ssenariylarini tayyorlash faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 2025-yil 29-apreldagi 05-09-576-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvlarning ilmiy ommabopligini ta'minlashga va keng jamoatchilik orasida ma'naviy yuksalish

jamiyatni faqat axloqan poklamaydi, balki barqarorlikni ichki ruhiyat asosida mustahkamlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy barqarorlik tushunchasini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ma'naviy barqarorlik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, namoyon bo'lish xususiyatlari, shakllari va funksiyalari, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik bilan aloqadorligi hamda jamiyatning ma'naviy barqarorlik darajasini aniqlash mezonlari va indikatorlari tadqiq etilgan.

Ma'naviy barqarorlik jamiyatning ma'naviy sohasi tarkibiy elementlarining muqimligini, ularning mustahkamligini va rivojlana olish imkoniyatlarini, turli tahdid va xatarlarga bardoshliligi me'yorini anglatadi. Barqarorlik falsafaning asosiy tushunchalaridan biridir. Har qanday narsa, har qanday hodisa mavjud bo'lmog'i, shakllanmog'i va kelgusida rivojlanmog'i uchun avvalo ma'lum vaqt davomida o'z tarkibi va xossalarini, tarkibiy qismlari o'rtasidagi turli aloqalarni saqlash xususiyatiga ega bo'lmog'i lozim. Chunki taraqqiyot tizimdagi tarkib, xossa va aloqalarning yemirilib yoki butkul yo'qolib ketishini emas, bir sifatdan boshqasiga o'tishini anglatadi<sup>6</sup>.

Dissertatsiyada jamiyatdagi barqarorlik iqtisodiy barqarorlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy barqarorlik kabi tiplarga tasniflangan va mazmuni va shakllariga, xarakteri va ahamiyatiga egaligi isbotlangan. Xususan:

- iqtisodiy barqarorlik mamlakat iqtisodiyoti, uning tarkibiy qismlarining xavfli tebranishlardan xoliligini va o'sishga moyilligini ko'rsatuvchi vaziyatdir;

---

<sup>6</sup> To'rayev B.O. Tizimli yondashuv falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 84.

- siyosiy barqarorlik mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tizimning qobilligida, siyosiy institutlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda mafkuraviy muammolarni hal qila olish imkoniyatlarida, maqbul qarorlarni qabul qilish mexanizmlarida namoyon bo'ladi;

- ijtimoiy barqarorlik ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy adolat tamoyillari asosida tashkil etilganligi, bu munosabatlarni ta'minlovchi ijtimoiy sohaning qobilligi, uning o'z funksional vazifalarini bajara olish imkoniyatlari, jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondira bilish qudrati bilan bog'liq;

- ma'naviy barqarorlik jamiyatning ma'naviy sohasi tarkibiy elementlarining muqimligini, ularning mustahkamligini va rivojlana olish imkoniyatlarini, turli tahdid va xatarlarga bardoshlilik me'yorini anglatadi.

Shuningdek, ma'naviy barqarorlik komponentlari quyidagicha keltirilgan:

1. Mazmunan boy ijtimoiy ong shakllari. Jamiyatning ma'naviy barqarorligi eng avvalo ijtimoiy ong shakllarining mazmundorligi tushuniladi.

2. Insonparvar ijtimoiy ruhiyat va mafkura. Ijtimoiy ruhiyatgina jamiyat a'zolarida optimistik kayfiyatni shakllantiradi, ularning madaniy saviyasini va butun hayotiy faoliyatlari yo'nalishini belgilab beradi.

3. Uzluksiz ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni. Ushbu jarayon uzluksiz va unumli davom etgani sayin turli sohalarni takomillashtirish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsion bilim va g'oyalarni yaratish, kishilar dunyoqarashini kengaytirish, maqbul jamoatchilik fikrini shakllantirish, kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib boraveradi.

Tadqiqotchi fikricha, jamiyat barqarorligining boshqa tiplarini ma'naviy barqarorlikni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi omillar sifatida e'tirof etish ham mumkin. Mazkur omillar ta'sirida muayyan mazmun kasb qilgan ma'naviy barqarorlikning ijtimoiy ahamiyati yangi ta'limotlarning vujudga kelishiga zamin yaratadi, davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtiradi, ijtimoiy kayfiyatni o'zgartiradi, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlaydi va jamiyatning tahdidlarga bardoshlilikini kuchaytiradi.

Tadqiqotda jamiyatning ma'naviy jihatdan barqarorligini ko'rsatuvchi mezonlarning yaxlit tizimi tahlil qilingan. Bularga:

- siyosiy dasturlarning xarakteri. Jamiyatda ilgari surilayotgan siyosiy dasturlarning insonparvar va demokratik siyosiy g'oya hamda ta'limotlarga tayanganligi uning ma'naviy jihatdan barqarorligini ko'rsatadi. Siyosiy dasturlarda g'ayriinsoniy siyosiy g'oyalar va maqsadlar ustuvorligi esa, aksincha, jamiyatning ma'naviy beqarorligi sababchisi va ifodasidir;

- inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi. Ma'naviy barqarorlik juz'an huquqiy ongning, xususan huquqiy tuyg'ular va tasavvurlar, huquqiy bilimlar va g'oyalar, huquqiy qadriyatlar va ideallarning rivoji evaziga qaror topadi. Shuningdek, huquqiy ong taraqqiy topgan, huquq va erkinlik qadriyat darajasiga ko'tarilgan, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar, tasavvurlar shakllangan jamiyatdagina amalda huquq va erkinliklar ustuvorligini ta'minlab bo'ladi;

- diniy bag'rikenglik tamoyilining amaliyotga tatbiq etilganligi. Xuddi shuning uchun ham diniy bag'rikenglik tamoyillarining amaliyotga tatbiq etilganligi jamiyat

ma'naviy barqarorligining ko'rsatkichi, uning zaifligi yoxud yo'qligi esa ma'naviy beqarorlikning darakchisidir;

- ilm-fan nufuzi hamda ilm kishilarining maqomi. Fan rivoji ijtimoiy ruhiyatni g'ayriilmiy va soxta ilmiy elementlardan xalos qiladi, jamiyatdagi mafkuralarning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi;

- badiiy adabiyot va san'at asarlarining ommalashgani. Badiiy adabiyot va san'at asarlari kishilarning madaniy saviyasini yuksaltirar ekan, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltiradi, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtiradi;

- tarixiy xotiraning shakllanganligi. Jamiyatda o'tmishga, tarixiy shaxslar faoliyatiga doir ijtimoiy bilimlarni muvofiqlashtiruvchi, bu bilimlarni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ijtimoiy-madaniy uslublar va institutlarning mavjudligi muhim ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega;

- mafkuraviy plyuralizm. Har millat o'z milliy g'oyasi va mafkurasiga ega bo'lmog'i, uni chuqur anglab, o'zlashtirib olmog'i muhim. Milliy g'oya, mafkura jamiyatga, millatga ijtimoiy taraqqiyot maqsadi va yo'nalishlarini mufassal aniqlab olish imkonini beradi;

- ma'naviy tahdidlarga bardoshlilik; Ma'naviy tahdidlar – ma'naviy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Bu tahdidlardan jamiyatni muhofaza qilishning yagona yo'li esa uning ma'naviy jihatdan bardoshlilikini ta'minlash, bunga xizmat qiluvchi ijtimoiy mexanizmlarni shakllantirish bilan bog'liq.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviy barqarorlik jamiyat barqarorligining o'ziga xos tipidir. U ma'naviy soha tarkibiy elementlarining muqimligini, mazkur elementlarning rivojlana olish imkoniyatlarini, ularning turli tahdid va xatarlarga bardoshliliigi me'yorini anglatadi. Jamiyatning ma'naviy jihatdan barqarorligi nisbatan ko'proq mezonlarning namoyon bo'lishiga qarab aniqlanadi. Chunki ma'naviy barqarorlik murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, uning darajasi siyosiy-huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, madaniy va mafkuraviy omillarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi. Mazkur mezonlarning jamiyat hayotida izchil namoyon bo'lishi ma'naviy muhitning sog'lomligini, ijtimoiy hamjihatlikning mustahkamligini hamda ma'naviy tahdidlarga qarshi samarali himoya mexanizmlarining shakllanganligini anglatadi. Shu bois ma'naviy barqarorlikni baholashda alohida mezonlarga emas, balki ularning yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lish darajasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbekiston jamiyati ma'naviy barqarorligining ijtimoiy-madaniy negizlari va transformatsion tahdidlar”** deb nomlanib, unda O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikning tarixiy-madaniy negizlari va falsafiy asoslari hamda jamiyat ma'naviy barqarorligiga ta'sir etuvchi zamonaviy tahdidlar tavsiflangan.

Ma'naviyat rivojlangani sayin jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengaya boradi. Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida insonparvarlik, hamjihatlik, adolat va shu kabi umuminsoniy qadriyatlar o'zbek jamiyatining ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi omil bo'lib kelgan. Millatlararo totuvlik umuminsoniy qadriyat sifatida har qanday zamonaviy sotsiumni ma'naviy jihatdan jipslashtiradigan qudratdir. Mamlakatda oqilona milliy siyosat olib borilishi, turli millat va elat vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratilishi, milliy-madaniy markazlarning ko'paytirilishi

muhimdir. Mamlakatda iqtidorli yoshlarni tanlash va ularni shakllantirish mexanizmlarining yaratilishi katta ichki imkoniyatlarga ega bo'lgan yigit va qizlarni shakllantirishga yo'l ochdi. Shaxs ichki imkoniyatlarini namoyon qilish shart-sharoitlarining takomillashishi jamiyatning ma'naviy barqarorligini yanada mustahkamlashga poydevor yaratdi.

Dissertant fikricha, jamiyatning ma'naviy barqarorligiga, shu jumladan insonning ruhiy dunyosiga nafaqat ma'naviy, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ham tahdid solishi mumkin. Binobarin, jamiyatning ma'naviy barqarorligiga tahdid solayotgan omillarni birmuncha kengroq tavsiflamoq darkor. O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlikka putur yetkazayotgan tahdidlarga quyidagilarni aytib o'tish mumkin. Ya'ni:

1) ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g'oyalarga asoslangan siyosiy dasturlarning ko'payayotganligi. Jahonning turli mamlakatlarida millatchilik va shovinizmni ulug'laydigan, davlatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaydigan siyosiy kuchlar tobora urchimoqda. Ushbu siyosiy kuchlar o'z g'oya va qarashlarini ifodalagan turli siyosiy dasturlarni ilgari surmoqdalar, davlat institutlaridan ularni ro'yobga chiqarishni talab qilmoqdalar.

2) Tarixiy voqealarni noxolis talqin qilish. Har qanday siyosiy dasturni asoslash va ommalashtirish uchun turli uslub va usullar, omil va vositalarga murojaat etish zarur bo'ladi. Chunki tarixning maqbul talqinini yaratish va singdirish orqali kishilarning dunyoqarashini, ijtimoiy jarayonlarga munosabatini tubdan o'zgartirish mumkin.

3) Diniy mutaassiblik. Diniy mutaassiblik muayyan ko'rinishdagi mafkuraviy tajovuz mahsulidir. XX asrning oxirlariga kelib, turfa geosiyosiy kuchlarning raqobati tufayli yuzlab ekstremistik va terroristik guruhlar vujudga keldi. Ularning aksariyat qismi Yaqin Sharq mamlakatlarida faoliyat olib bormoqda. "Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti eksperti Chjan Nin ma'lum qilishicha, O'zbekistonda 2018-yil iyul oyi holatiga ko'ra 18 ming nafar kishi ekstremizm g'oyalarga moyillikda hamda mamlakatda ta'qiqlangan tashkilotlar bilan aloqadorlikda gumon qilingan shaxslar ro'yxatida bo'lgan"<sup>7</sup>. Ular islom niqobi ostida o'zlariga singdirilgan g'oyalarga ko'r-ko'rona ishonadilar, taqdim qilingan normalarga so'zsiz rioya qiladilar.

4) Axloq haqidagi tasavvurlar o'zgarishi. Jamiyatda bir vaqtda turli mafkuralarning targ'ib qilinishi bir necha axloqiy normalar tizimiga amal qiluvchi kishilar guruhlarini vujudga keltiradi. Axloqiy plyuralizm hamma vaqt ham jamiyat ma'naviy barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qilayotgani yo'q. Chunki uning oqibatida jamiyatda o'z hayoti va faoliyatini turli axloqiy normalar asosida tashkil qilishga odatlangan kishilar paydo bo'lmoqda, milliy axloq norma va tamoyillariga putur yetmoqda.

5) Inson huquqlari axloqdan ayri holda talqin etilishi. Har qanday jamiyatda huquq nafaqat ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi, balki jamiyat a'zolari erkinligining me'yori va ko'lamini belgilab beradi. Ayni paytda huquq normalari axloq normalari bilan uyg'un bo'lmog'i, ularni o'zida mujassam qilmog'i ham shart. Axloqdan mosuvo

---

<sup>7</sup> Bekmurodova G.H. Zamonaviy ijtimoiy destruksiya: mazmuni va shakllari, O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari: Fals. fan. dokt. (DSc) diss. – Buxoro: BuxDU, 2022. – B. 24.

huquq erkinlik mezoni bo'la olmaydi. Jamiyatda inson huquqlari oliy qadriyatga aylanmas, davlat tomonidan qat'iy kafolatlanmas ekan, hech qanday demokratiya haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

6) Ilm-fan taraqqiyotida yuzaga kelgan turkum nooqilona tendensiyalar. Ilm-fan rivoji yangi ilmiy g'oya, ta'limot, nazariyalarning vujudga kelishi, borliqdagi muayyan obyektga doir yangi yondashuv va tavsiflarning shakllanishi, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarning yechimiga oid tavsiyalarning jamlanishi bilan belgilanadi. Afsuski, ayrim maqolalar soni yil sayin ko'payib bormoqda, ular milliy ilm-fan ravnaqiga xizmat qilayotgani yo'q. Aksincha, bu kabi publikatsiyalarning ko'payib ketayotgani jamiyat ma'naviy barqarorligining ilmiy zaminlariga putur yetkazmoqda.

7) San'at olamidagi qator yangi oqimlar. XX asrda san'at olamida modernizm va avangardizm oqimlari o'zaro aloqadorlikda va raqobatda rivoj topa boshladi. Ayrim manbalarda ushbu ikki tushuncha sinonimlar sifatida ishlatiladi<sup>8</sup>. Aslida bunday emas. To'g'ri, ularning har ikkalasi yangi san'atni yaratishga, yangi g'oyalar va obrazlarni ifodalashga urinuvchi oqimlar va maktablardan tarkib topadi. Biroq modernizm bu vazifani klassik san'atdagi g'oyalar va an'analarga tayangan holda amalga oshirishga harakat qiladi<sup>9</sup>. Modernizm klassik san'at an'analari inkor qilinmagani bois uning rivojida muayyan vorisiylik mavjud: unda g'oyalar va obrazlar tadrijiy ravishda takomil topa boradi. Avangardizm oqimlari teatr va kinoda, arxitektura va tasviriy san'atda, hatto musiqa va ijro san'atida bema'ni asarlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma'naviy barqarorlikning asosiy komponentlari milliy ma'naviyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi va rivojlandi. Yurtimizda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy hamda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijasida milliy qadriyatlar, urf-odat, tarixiy meros va an'analarni tiklash hamda ularni zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlikning bugungi negizlari umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, xalq ma'naviy merosini tiklash, jamiyat a'zolariga o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, vatanparvarlik g'oyasi va tuyg'usini takomil toptirish borasida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan bog'liq. Natijada jamiyatda inson qadri, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy munosabatlarga tayangan barqaror ma'naviy muhit shakllanishi uchun muhim zamin yaratildi. Bugungi kunda jamiyatning ma'naviy barqarorligiga ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g'oyalarga asoslangan siyosiy dasturlarning ko'payayotgani, mamlakatlar va xalqlarga mafkuraviy tajovuzlarning ashaddiy tus olayotgani, tarixiy voqealarni noxolis talqin qilishning urf bo'layotgani, diniy mutaassiblik va diniy toqatsizlikning avj olayotgani, axloqiy plyuralizmning ildiz otayotgani, inson haq-huquqlarining axloqdan ayri holda talqin etilayotgani, ilm-fan rivojida nooqilona tendensiyalarning yuzaga kelayotgani, san'at olamida yangi oqimlarning paydo bo'layotgani tahdid uyg'otmoqda. Binobarin, ularning ta'sirini

<sup>8</sup> Qarang: Аполлон. Изобразительное и декоративное искусство. Архитектура.- М.: НИИ теории и истории изобразительных искусств РАХ — Эллис Лак, 1997. — С. 14.

<sup>9</sup> Qarang: Власов В. Г. Модернизм // Новый энциклопедический словарь изобразительного искусства. Том 1.- СПб.: Азбука-Классика, 2004.- С. 44.

kamaytirish jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashning dolzarb vazifalariga aylanmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jamiyat ma'naviy barqarorligini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari”** deb nomlanib, unda O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari tahlili, bu boradagi dolzarb vazifalar tavsifi, ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish va mafkuraning insonparvarligi, ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishning ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli hamda ushbu vazifalarning mazmuni, ularni bajarish imkoniyatlari ochib berilgan.

O'zbekiston jamiyati ma'naviy barqarorligini mustahkamlashning asosiy vazifalari ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish va milliy mafkurani rivojlantirish hamda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishdan iboratdir. Ijtimoiy ruhiyat har qanday jamiyat ma'naviy hayotining o'ziga xos shaklidir. Unda ijtimoiy ongning kundalik darajasi o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ruhiyat jamiyat a'zolarining his-tuyg'ulari va tasavvurlari, kayfiyatlari va hayotiy intilishlari, fikr-mulohazalari va turli jarayonlarga munosabatlari, odatlari va an'analarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda jamiyat ma'naviy barqarorligiga tahdidlar keskinlashayotgan vaziyatda ijtimoiy ruhiyatni takomillashtirish vazifalari muhim ekanligi asoslab berilgan. Jamiyat a'zolarining hayotiy maqsadlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish kerak. Aniq, pragmatik va uzoq muddatli hayotiy maqsadning mavjudligi nafaqat shaxs turmushi mazmundorligini ta'minlovchi omil, balki ijtimoiy ruhiyatning sog'lomligini va optimalligini ko'rsatuvchi mezon hamdir. Jamiyat a'zolarining ehtiyojlari tabiatiga qarab, undagi ijtimoiy ruhiyat xarakterini aniqlash mumkin. Sog'lom ehtiyojlarning qaror topganligi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatning mavjudligi ijtimoiy ruhiyatning optimalligidan darak beradi. Aksincha, nosog'lom ehtiyojlar, ulardagi disbalans nomaqbul ijtimoiy ruhiyat mezonidir. Kishilarning ko'tarinki kayfiyati, bir tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar progressiv ko'rinish olganidan, ikkinchi tomondan esa, ushbu jarayonlar sharofati bilan optimal ijtimoiy ruhiyat qaror topa boshlaganidan dalolat beradi. Ijtimoiy pessimizm jamiyatdagi jarayonlar bilan xalq manfaatlari o'rtasidagi uyg'unlik buzilganini ko'rsatuvchi mezondir. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy jarayonlar haqidagi bilim va tasavvurlarini, ularga munosabatini ifodalaydi. Ayni paytda jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, muvofiqlashtirish, boshqarish imkonini beradigan omil hamdir. Biroq bunday omilga aylanishi uchun u sog'lom va ratsional xarakterga ega bo'lmog'i darkor.

Tadqiqotchi fikricha, O'zbekiston ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkurani ham uzluksiz rivojlantirish taqozo etiladi. Chunki odamlar umumiy g'oya negizida shakllangan dunyoqarashga ega bo'lmagan, yagona maqsad atrofida jipslashmagan, uni ro'yobga chiqarishga hamjihatlikda intilmagan jamiyatda ma'naviy barqarorlik bo'lmaydi. Milliy g'oyaning mufassal ifodalab olinishi va keng targ'ib qilinishi jiddiy ijtimoiy natijalarga olib keldi. Xususan:

- milliy g'oya va mafkuraning shakllantirilishi kishilarning O'zbekistonda barpo etilayotgan yangi jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi;
- milliy g'oya jamiyat a'zolarini kommunistik mafkura iskanjasidan qutqardi;
- milliy g'oya mustaqillikning ilk yillarida yuzaga kelgan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirdi hamda millatni g'oyaviy qaramlikdan xalos etdi;

